

B-01-04/659
06.12.2025-yil

“TASDIQLAYMAN”

**Qashqadaryo viloyati hokimi, viloyat
hokimligi huzuridagi mahallalarni tuzish,
birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek
ularning chegaralarini belgilash va
o‘zgartirish masalalari bo‘yicha Idoralararo
doimiy komissiyasi raisi**



M.B.Azimov

2025-yil “ 05 ” dekabr

Idoralararo doimiy komissiyaning

BAYONI №

Qarshi shahri

Raislik qiluvchi:

M.B.Azimov – komissiya raisi.

Ishtirok etdilar:

viloyat idoralararo komissiya a‘zolari.

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-oktabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-405-son qarori ijrosini ta‘minlash.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil, 20-maydagi 294-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, tuman (shahar) hokimlari, Davlat kadastrlar palatasi va mahalla uyushmasining hududiy bo‘limlari bilan birgalikda mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar to‘g‘risida.

(M.Azimov, A.Qodirov, M.Azizov, O.Ravshanov, S. Eshmatov, G‘.Hamroyev, A.Ismoilov,
R.Shoymardonov, M.Azimov)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-405-son qarorining 1-ilovasi bilan “2023-2026-yillarda Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi organlari va tashkilotlari faoliyatining asosiy prognoz ko‘rsatgichlari” tasdiqlanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

Ushbu asosiy prognoz ko'rsatgichlarining 7-bandidagi mahallalar chegaralarini belgilash topshirig'iga asosan viloyatning Chiroqchi, Qamashi, Dehqonobod, Ko'kdala va Muborak tumanlarida jami 239 ta mahalla chegaralari belgilanib, sxema va tavsiflari ishlab chiqilganligi hamda qo'shni mahalla raislari bilan kelishib tasdiqlangani, shunigdek, Kitob tumanidagi "Charmgar", "Bektemir" va "Guliston" mahalla chegaralariga o'zgartirish va qayta belgilash ishlari amalga oshirilganligi to'g'risidagi ma'lumoti qabul qilinsin.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil, 20-maydagi VII-11-86-4-0-K/25 –sonli qarori hamda 2025-yil, 05-avgustdagi VII-14-131-4-0-K/25 –sonli qarorilariga asosan, birlashtiriladigan va ixchamlashtirishga tushgan mahallalar chegaralarini belgilash tegishli tashkilotlar bilan ishlab chiqilib, kelishilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, chegaralari ishlab chiqilgan mahalla fuqarolar yig'inlarini chegaralarini belgilash haqidagi masalani Xalq deputatlari viloyat Kengashida ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorilardan kelib chiqib, viloyat idoralararo komissiyasi

QAROR QILADI.

1. Davlat kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi boshlig'i G'.Hamroyevning:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-405-son qarorining tegishli bandida mahallalar chegaralarini belgilash topshirig'iga asosan viloyatning Chiroqchi, Qamashi, Dehqonobod, Ko'kdala va Muborak tumanlarida jami 239 ta mahalla chegaralari belgilanib, sxema va tavsiflari ishlab chiqilganligi hamda qo'shni mahalla raislari bilan kelishib tasdiqlangani, shunigdek, Kitob tumanidagi "Charmgar", "Bektemir" va "Guliston" mahalla chegaralariga o'zgartirish va qayta belgilash ishlari amalga oshirilganligi to'g'risidagi ma'lumoti ma'qullansin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagi 294-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil, 20-maydagi VII-11-86-4-0-K/25 –sonli qarori va 2025-yil, 05-avgustdagi VII-14-131-4-0-K/25–sonli qarorilariga asosan, birlashtiriladigan va ixchamlashtirishga tushgan mahallalar chegaralarini qayta belgilash to'g'risidagi ma'lumoti ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari viloyat Kengashi (I.Xushmurodova)ga:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-405-son qarorining tegishli bandida mahallalar chegaralarini belgilash topshirig'iga asosan viloyatning Chiroqchi, Qamashi, Dehqonobod, Ko'kdala va Muborak tumanlarida jami 239 ta

mahalla chegaralari belgilanib, sxema va tavsiflari ishlab chiqilganligi hamda qo'shni mahalla raislari bilan kelishib tasdiqlangani, shunigdek, Kitob tumanidagi "Charmgar", "Bektemir" va "Guliston" mahalla chegaralariga o'zgartirish va qayta belgilash;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagi 294-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil, 20-maydagi VII-11-86-4-0-K/25 –sonli qarori va 2025-yil, 05-avgustdagi VII-14-131-4-0-K/25–sonli qarorlariga asosan, birlashtiriladigan va ixchamlashtirishga tushgan mahallalar chegaralarini tegishli tashkilotlar bilan kelishilgan holda birlashtirilgan va yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig'inlarini chegaralarini qayta belgilab chiqish ishlarini Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi sessiyasida muhokamaga kiritilishini ta'minlash so'ralsin.

3. Idoralararo viloyat komissiyasining xulosasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur yig'ilish bayoni topshiriqlarining bajarilishini ta'minlash viloyat hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi N.Egamov va Davlat kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi boshlig'i G'.Hamroyev zimmasiga yuklatilsin.



**Qashqadaryo viloyat hokimligi huzuridagi mahallalarni tuzish, birlashtirish,
bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish
masalalari bo'yicha Idoralararo doimiy komissiyasining**

XULOSASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-405-son qarorining tegishli bandida mahallalar chegaralarini belgilash topshirig'iga asosan viloyatning Chiroqchi, Qamashi, Dehqonobod, Ko'kdala va Muborak tumanlarida jami 239 ta mahalla chegaralari belgilanib, sxema va tavsiflari ishlab chiqilganligi hamda qo'shni mahalla raislari bilan kelishib tasdiqlangani, shuningdek, Kitob tumanidagi "Charmgar", "Bektemir" va "Guliston" mahalla chegaralariga o'zgartirish va qayta belgilash ishlari amalga oshirilganligi to'g'risidagi ma'lumoti ma'qullansin.

Mahallalar faoliyatini takomillashtirilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining "Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek, ularning chegarasini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2024-yil 20-maydagi 294-sonli qaror qabul qilindi.

Mazkur qarorga asosan, viloyatdagi mavjud mahallalar faoliyati tashkiliy va moliyaviy jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, boshqaruv jihatdan o'zini oqlashi o'rganildi hamda mahallalarni birlashtirish va ixchamlashtirish maqsadida Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025 yil 20-maydagi VII-11-86-4-0-K/25-sonli hamda 2025-yil, 05-avgustdagi VII-14-131-4-0-K/25 -sonli qarorlariga asosan mahalla fuqarolar yig'inlari birlashtirildi.

Qashqadaryo viloyat hokimligi huzuridagi mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish masalalari bo'yicha Idoralararo doimiy komissiyasi yuqorida ko'rsatib o'tilgan mahalla fuqarolar yig'inlarini atroflicha o'rganib chiqib, Davlat kadastrlar palatasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda birlashtirilgan mahallalar chegaralari qayta belgilab chiqilganligi to'g'risidagi ma'lumoti Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi sessiyasida muhokamaga kiritilishi maqsadga muvofiq deb topilsin.